

O'ZBEKISTONDA QO'SHIMCHA JAZOLARNI TAYINLASH VA IJRO ETISH

Dauletbaeva Nodira Baxadir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini

qo'llash nazariyasi va amaliyoti mutaxassisligi magistri

E-mail: dauletbaevanodira@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezis O'zbekiston Respublikasi jinoyat-huquqiy tizimida qo'shimcha jazolarni tayinlash va ularni ijro etishning amaliy va nazariy masalalari keltirilgan. Ularning ahamiyati, turlari va asosiy e'tibor qo'shimcha jazolar tushunchasining huquqiy mohiyati va ularning turlariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jazo turlari, asosiy jazolar, qo'shimcha jazo, aralash turdagi jazo, mahkum, sud, hukm.

НАЗНАЧЕНИЕ И ИСПОЛНЕНИЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ НАКАЗАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Даулетбаева Нодира Бахадир кызы

Ташкентский государственный юридический университет Магистр
специальности «Теория и практика применения уголовного права»

Электронная почта: dauletbaevanodira@gmail.com

Аннотация: в диссертации изложены практические и теоретические вопросы назначения дополнительных наказаний и их исполнения в уголовно-правовой системе Республики Узбекистан.

Раскрываются их значение, виды, основное внимание уделяется правовой сущности понятия дополнительных видов наказания.

Ключевые слова: *виды наказаний, основные наказания, дополнительные наказания, смешанные наказания, осужденный, суд, приговор.*

APPOINTMENT AND EXECUTION OF ADDITIONAL PUNISHMENTS IN UZBEKISTAN

Dauletbaeva Nodira Bahadir kyzy

Tashkent State University of Law, Masters student of the specialty "Theory and practice of application of criminal law"

E-mail: dauletbaevanodira@gmail.com

Abstract: *the dissertation presents practical and theoretical issues of appointment of additional punishments and their execution in the criminal-legal system of the Republic of Uzbekistan. Their meaning, types are revealed, the main attention is paid to the legal essence of the concept of additional types of punishment.*

Keywords: *types of punishments, main punishments, additional punishments, mixed punishments, convicted person, court, sentence.*

Jinoyat huquqida jazo tushunchasi asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida jazo tushunchasi va uning maqsadlari, jazo tizimi, asosiy va qo'shimcha jazo turlari o'z akisini topgan. Jazo bu – jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq

va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazoni tanlash va uning qo'llanishidan ko'zlanayotgan maqsad mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo'llaniladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoyat sodir etgan shaxslarga asosiy jazolar bilan birga, qo'shimcha jazolar ham tayinlanishi mumkin.²

Qo'shimcha jazo esa – asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llaniladigan chora bo'lib, jazoni kuchaytirish yoki maqsadga muvofiq yo'naltirish uchun tayinlanadi. Ya'ni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazo chorasi davlat majburlovining asosiy jazo choralari qo'shiladi va mustaqil tarzda qo'llanishi mumkin emas. U asosiy jazodan keyin yoki asosiy jazo bilan birga qo'llanilib, jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsni kengroq nazorat qilish, unga bo'lgan ta'sirni kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. Jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha va sud jarayonida qonuniylikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan va inson huquqlarini samarali ximoya qilib kelayotgan jinoyat-huquqiy institutlarni amaliyotga joriy etish masalalari shular jumlasidandir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.

² Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.

Aybga iqrорlik kelishuvi institutining huquqiy tabiatini ko'rib chiqishda, qonun chiqaruvchi ushbu institutni yaratishda ko'zlagan maqsadlarga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki ayblov va himoya tomonlarining aybga iqrорlik kelishuvi bo'yicha hamkorligi muvaffaqiyati maqsadlarning aniq ifodalanishiga bog'liq bo'ladi. Qonun chiqaruvchining fikricha, ushbu institutni joriy etishning asosiy yo'nalishi jinoiy faoliyatning uyushgan shakllariga qarshi kurashish, jinoiy uyushmalar va uyushgan to'dalar a'zolari tomonidan sodir etilgan eng xavfli jinoyatlarni, jumladan, "buyurtma" qotilliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatlarni hamda turli xil korrupsiya holatlarini fosh etish va tergov qilishda samaradorlikka erishishdan iboratdir.

O'zbekiston jinoyat qonunchiligining jazo tizimida keltirilgan jazolarning yana bir turi, bu aralash toifadagi jazo turi ya'ni muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham asosiy ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladi. Mazkur jazolar aybdorga nisbatan ijtimoiy adolatni tiklash va qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qiladi.

Qo'shimcha jazolar odatda asosiy jazolar bilan birga tayinlanadi va sud hukmida ularning turi, muddati hamda ijro tartibi aniq ko'rsatiladi. Ularni ijro etish Ichki ishlar vazirligi, Jazoni ijro etish departamenti yoki sud qarorlariga muvofiq mas'ul idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Biroq amaliyotda ularning ijrosida qiyinchiliklar, byurokratik to'siqlar, nazorat mexanizmlarining sustligi kabi muammolar mavjud. Xususan, muayyan

faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish jazosi ijrosini monitoring qilish mexanizmlari yetarlicha takomillashmagan.

Xorijiy davlatlar, jumladan Germaniya, Fransiya, Rossiya tajribasida qo'shimcha jazolarni samarali ijro etish uchun elektron nazorat tizimlari, jamoatchilik nazorati, sud-psixologik baholash kabi vositalar qo'llaniladi. Mazkur tajriba O'zbekistonda ham qo'llanishi mumkin bo'lgan ilg'or yo'nalishlar sirasiga kiradi.

Yuqordagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, qo'shimcha jazolarni samarali tayinlash va ijro etish uchun qonunchilikni takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/docs/-111453>.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.